

YOG'INGARCHILIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA OTLARNI GURUHLASH

Aliqulov Abduhakim Ganiyevich

Fakultetlararo ingliz tili kafedrası dotsenti, Fakultetlararo ingliz tili kafedrası dotsenti, A Azimov taqrizi ostida

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: yel va yog'in, leksema, lisoniy birlik, substansial, aksidensial, lisoniy qatlam, nutqiy qatlam, tasnif.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yog'ingarchilik ko'rsatkichlari asosida otlarni guruhlariga bo'lish, hamda leksemalar serqirra mohiyatli birliklar bo'lganligi sababli, ularning izchil tasnifi ham o'ta zarur bo'lib, bunda zamonaviy o'zbek semasiologiyasining so'nggi yutuqlari bo'lmish lisoniy birliklardagi substansial va aksidensial jihatlarining farqlanishi, aniqrog'i, lisoniy va nutqiy qatlamlarning o'ziga xos jihatlarini dialektik oydinlashtirilishiga tayanish muhim ahamiyatga molikligi aytib o'tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2025 LWAB.

Introduction. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "TASNIF narsa va hodisalarni ularning o'ziga xos xususiyatlariga qarab tur, turkum va shu kabilarga ajratish, tasnif qilish, turkumlashdir" deyilgan. Narsa va hodisalar serqirra. Shu boisdan ularni tasniflash, ya'ni har bir hodisani turkumlash, muayyan birlikning turkumlar sirasidagi o'rnini belgilash sistemaviy tadqiqotlarning o'zagidir.

Mantiqda tasnif haqidagi ma'lumotlarning adog'iga yetib bo'lmaydi. Shuning uchun ko'pchilik tomonidan tan olingan mantiqshunos A.D.Getmanova muallifligidagi mantiqqa doir darslikda tasnif deganda predmetlarni har biri barqaror va muayyan o'rin egallaydigan guruhlariga bo'lish tushuniladi. Demak, tasnifda narsa-predmetlarning barqaror va muayyan o'rin egallaydigan belgilariga qarab ish tutiladi. Zero, tasnif barqaror belgilar asosida olib borilsagina, u uzoq va davomli tarixga ega bo'ladi. Tasnif yashovchan bo'lmog'i lozim.

Literature review. Tasnif barqaror va beqaror, mohiyatga daxldor yoki zohiriy alomatlar asosida olib borilishi mumkin. Shunga ko'ra, sistemalogiyada tabiiy va yordamchi tasniflar farqlanadi. D.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvali tabiiy va barqaror mohiyatlarga asoslangan tasniflarga yaqqol misol bo'la oladi. Chunki elementlarni atom og'irliklarining ortib borishiga ko'ra joylashtirish asosidagi tasnif hanuz o'zgarmasdan saqlanib kelmoqda.

Har qanday ilmiy tadqiq, xususan, lingvistik tadqiqotlar, avvalo, tasnifdan boshlanadi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, "alohida so'z guruhlari orasidagi chegara harakatchandir. Alohida so'z turkumlarini ajratishda ular orasidagi o'tuvchanlik holatlari ko'zga tashlanadi". Masalan, o'zbek tilidagi kasal, donishmand, birov, yaxshi kabi leksemalarining turkumlar bo'yicha tasnifidagi o'rni muqim emas.

Research methodology. B.Mengliyev lisoniy tasnif quyidagi mantiqiy mezonlar asosida bo'lishini ta'kidlaydi:

1. Tasniflangan guruhlarining hajman tasniflanuvchi butunlikka mos kelishi.

2. Tasnifning bir asosda amalga oshirilishi.
3. Tasnif a'zolari bir-birini inkor etishi.
4. Tasnifda sakrash bo'lmasligi.

Ikkinchi mezon ko'ra, ma'lum bir tasnifda faqat bir belgiga tayanish lozim. Buni tilshunos H.Ne'matov ham turkiy tillar yodgorliklaridagi so'z turkumlari tasnifi misolida ta'kidlab, turkumlar semantik, morfologik va sintaktik belgilarga egaligi, biroq har bir tasnifda ularning bittasigagina tayanish lozimligini, ularni bir butun holda olish tasnifni amalga oshira olmaslikni keltirib chiqarishini uqtirgan edi.

Ma'lumki, lisoniy tizim privativlik asosida yashaydi. Demak, tasnifda ham ushbu xossa alohida e'tiborga olinishi lozim. Chunki formal mantiqda amal qilinuvchi "uchinchisi istisno" qat'iyati o'rnida dialektik mantiqda "oraliq uchunchi" qonuniyatiga tayaniladi. Demak, uchunchi tasnif omilidagi inkorni "biror S unsurga yo A, yoki V kiradi" tarzida emas, balki "S ga qaysi belgisi bilan A, qaysi belgisi bilan V kiradi" ma'nosida tushunish maqsadga muvofiq.

Bunday izchil tasnif o'zbek tili leksik tizimidagi otlarni tasniflashda quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Bo'g'in soniga ko'ra: bir bo'g'inli (yel, do'l), ko'p bo'g'inli (shamol, bo'ron).
2. Tovushlar miqdoriga ko'ra: bir tovushli, ko'p tovushli (shudring, qor).
3. Tub/yasamaligiga ko'ra: tub (shamol, shabada) va yasama (qorbo'ron, yelvagay).
4. Yasalish turiga ko'ra: diaxronik yasalishli (bulduruq, izg'irin), sinxronik yasalishli (yog'in-sochin, yog'in).
5. Tuzilishiga ko'ra: sodda (jala, tuman), murakkab (yel-yog'in, chang-chung).
6. Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra: ma'nodosh (shamol, shabada), shakldosh (yel), zid ma'noli (oqim, girdob).
7. Qo'llanishiga ko'ra: faol (shamol, yomg'ir), nofaol (shtorm, samum).
8. Onomosiologik-nominatsion xususiyatiga ko'ra: antroponim (Yomg'ir), toponim (Shamolikam), zoonim (Bo'ron).
9. Vazifaviy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra: kitobiy (shabboda), so'zlashuv (jala).
10. Lug'at qatlamiga ko'ra: o'z qatlam (yomg'ir) va o'zlashgan qatlam (tayfun).
11. Emotsional-ekspressiv jihatiga ko'ra: emotsional-ekspressiv bo'yoqdor (jola), emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz so'zlar (shamol).

Bu tasnif asoslaridan dastlabki ikkitasi: tovushlar miqdoriga ko'ra va bo'g'inlar soniga ko'ra tasniflash yordamchi tasnif asosi bo'lib, bevosita leksemalarning mohiyatiga emas, balki zohiriy alomatlariga daxldordir.

Bizningcha, o'zbek tili leksemalarining bunday tasnifi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, lug'at va darsliklar tuzish ishini yengillashtiradi.

Lug'aviy tizim yaxlitligida, lisoniy makro va mikrosistemalarda bo'lgani kabi, tasnif va mujassamlashtirish muhim rol o'ynaydi.

Analysis and Results Ma'lumki, sistemaning asosiy belgilaridan biri undagi unsurlarning mujassamlashuvi, ya'ni umumsistem xususiyat asosida birlashuvi bo'lsa, sistema unsurlarining oppozitiv belgilari ularning nisbiy mustaqilliklarini ta'minlovchi va tasnif belgisi bo'luvchi farqlilik uchun xizmat qiladi. Farqlovchi va mujassamlashtiruvchi belgilar ham nisbiy tabiatli bo'lib, tasniflovchi belgi bir vaqtning o'zida mujassamlashtiruvchi bo'lsa, mujassamlashtiruvchi belgi

yondosh hodisalardan farqlovchi, tasniflovchi belgi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, “tabiiy jarayon” semasi yel-yog‘in leksemalarini boshqa tabiat hodisalarini ifodalovchi lug‘aviy-ma‘noviy guruhlar bilan birlashtirib, mujassamlashtiruvchi belgi sifatida yuzaga chiqsa, bir vaqtning o‘zida boshqa notabiiy hodisalardan ushbu lug‘aviy-ma‘noviy guruhni farqlovchi tasnifiy omil sifatida yuzaga chiqadi.

“Havo oqimi” semasi yel-yog‘in otlari leksemalarini mujassamlashtiruvchi belgi bo‘lib, shuningdek, boshqa tabiat hodisalaridan ushbu lug‘aviy-ma‘noviy guruhni ajratish uchun xizmat qiladi.

Yel-yog‘in otlari bir qarashda ikki lug‘aviy-ma‘noviy guruhga kiruvchi leksik birliklardek tasavvur uyg‘otadi. Biroq yel (shamol)ni ifodalovchi otlar ham, yog‘inni ifodalovchi otlar ham birlashtiruvchi sema – “havo oqimi” belgisiga egaligi ularni bir lug‘aviy-ma‘noviy guruhga kiruvchi mikrotizimlar sifatida qarashni taqozo qiladi. Buni obyektiv borliq voqeligi va uni til tomonidan tasniflanishining o‘ziga xosligi ham asoslaydi. Shamol (yel) havo oqimidan iboratligi aniq va ravshan bo‘lsa, yog‘in hodisalari ham havo oqimisiz yuz berishi mumkin emas. Shu boisdan yog‘in turlarining farqlanishi (to‘fon, jala, bo‘ron va hokazo) bevosita havo oqimi intensivligi asosida kechadi.

Yel-yog‘in otlari tizimi “havo oqimi” semasi asosida mujassamlashib, o‘zaro “sof havo oqimi” va shuningdek, tuman, bulut kabi leksemalar o‘z ma‘noviy tabiatida yel leksemalarining ham, yog‘in leksemalarining ham xossalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu mujassamlashuvda borliq hodisalari uchun umumiy substansial belgi bo‘lgan “oralik uchinchi” dialektikasi o‘z ifodasini topgan. Ko‘rinadiki, yel va yog‘in otlari leksemalarini birlashtiruvchi tizimni yel-yog‘in ko‘rinishida juft leksema bilan ifodalash sun‘iy ravishda ikki lug‘aviy-ma‘noviy guruhni bir lug‘aviy-ma‘noviy guruhdek tasavvur qilish emas, balki obyektiv voqelikni xolis ifodalashdir.

Yel-yog‘in otlari tizimi “havo oqimi” semasi asosida mujassamlashib, “yog‘inli havo oqimi” va “yog‘insiz havo oqimi” semalari asosida o‘zaro ziddiyatli ichki mikroguhrlarga bo‘linadi. Bu semalar ikki tizimga tasniflanuvchi leksik birliklar uchun arxisema maqomida. U mikroguhrga har bir leksemada o‘ziga xos tarzda modifikatsiyalanadi. Modifikatsion semaning kuchli-kuchsizligi ko‘p hollarda leksemalar semalariaro farqlarni vujudga keltiradi. Masalan, yel – nasim – sabo – shabada – shamol – bo‘ron – dovul – to‘fon zidlanishida leksemalar “havo oqimi kuchi” belgisi asosida darajalanish qatorini hosil qiladi. Til jamiyati a‘zolari ijtimoiy ongi leksemalar bilan ifodalanayotgan borliq hodisalarini ma‘lum o‘lchov asobi asosida farqlamaydi. Albatta, bunda leksemalarni, shuningdek, ular ifodalayotgan voqea-hodisalarini sistemaviy asosda farqlash lisoniy ko‘nikmasiga tayanib ish ko‘radi. Ijtimoiy ong borliq hodisalarini baholashning nisbiylik munosabatiga asoslanadi. Deylik, o‘nta kishining bilimni baholashda nisbiy kuzatish tamoyili ustuvorlik qiladi. Salim Halimga nisbatan, Halim Valiga nisbatan bilimli va hokazo. Xuddi shunday yo‘l yuqorida keltirilgan yel-yog‘in hodisalarida havo oqimi kuchini baholashda qo‘llaniladi. Yel nasimdan kuchsiz, shamol yeldan kuchli, sabodan kuchsiz, shabada sabodan kuchli, bo‘rondan kuchsiz, bo‘ron shamoldan kuchli, dovuldan kuchsiz, dovul bo‘rondan kuchli, to‘fondan kuchsiz. Bu belgilar leksemalarning semantik strukturasi shunday o‘rin oladi va semantik talqin “...dan kuchsiz, ...dan kuchli” komponentli semik alohidalikka ega bo‘ladi.

Leksemalararo farq borliq hodisalari orasidagi tafovutlar asosida bo‘lsa, semantik farqlanish semaning denotativ semalari zidlanishda bo‘ladi. Bu, yuqoridagidek, leksemalararo ternar yoki politomik ziddiyatli darajalanish qatorini tuzishga asos bo‘ladi. Shunday hollar ham bo‘ladiki, leksemalar nafaqat denotativ, balki konnotativ yoxud funksional semalar asosida ham tasniflanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da garmsel va garmsar leksemalarining leksikografik talqinida ularning aynanligi aytiladi:

“GARMSAR [f-t]. s.t. Garmsel

GARMSEL [f-t issiq mamlakatlar, o‘lkalar]. Yozda bo‘ladigan issiq yoqimsiz zararli shamol. Bu yerda ko‘pgina azamatlar yangi ko‘chatlar o‘tqazib, sahrodan keladigan qum va garmsel yo‘lini

to'sardilar. Sh.Rashidov, "Bo'ron dan kuchli". Diqqat qilinsa, ushbu leksemalararo mujassamlashuv sememalardagi "O'simliklar uchun zararli, issiq, yoqimsiz shamol" leksikografik ma'nosini tashkil etuvchi denotativ semalarda bo'lsa, farqlanish birinchi leksema leksikografik talqinida aks etgan s.t. (so'zlashuv tilida) leksikografik pometa (belgi)sidadir. Demak, leksikografik talqinga o'ziga xos tarzda singdirilgan ushbu semik farq leksemalarning semantik tavsifida quyidagicha aks ettiriladi:

GARMSAR – o'simliklar uchun zararli, issiq yoqimsiz shamolni bildiruvchi, so'zlashuv tiliga xos.

GARMSEL – o'simliklar uchun zararli, issiq yoqimsiz shamolni bildiruvchi, uslubiy betaraf so'z.

Ko'rinadiki, har ikkala so'z uchun denotativ semalar mujassamlashtiruvchi belgi bo'lsa, konnotativ sema tasnif asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Uyurma va quyun leksemalarida ham birlashtiruvchi hamda tasniflovchi semalarda shunday xususiyat mavjud. Ularning O'TILdagi leksikografik talqiniga e'tibor qarataylik:

"UYURMA O'ralib harakat qiluvchi kuchli shamol; bo'ron, girdibod; shunday shamol bilan yuqoriga ko'tarilib tushadigan mayda narsalar. To'zon uyurmasi. Qorli uyurma. Sahrodan kelgan qum uyurmalaridan o'zlarini saqlash uchun hamma jonivorlar in-iniga berkindi, cho'l huvillab qoldi. M.Osim, "Ajdodlarimiz qissasi". Uyurma yer yuzini supurmoqqa qasd etganday, tikkaygan nimaiki bor, komiga tortmoqqa urinadi. N.Norqobilov, "Bekatladi oq uycha". ..saratonda zavol topgan, qurigan xaslar osmon bo'yi uyurmada chirpirak bo'lib aylanadi. N.Norqobilov, "Bekatladi oq uycha".

"QUYUN 1 Qattiq uyurmali shamol; uyurma. Osmon bilan tutashib ketgan quyun yer bag'rini qirtishlab, xas-xashak bormi, chang-to'zon bormi hammasini uchirib, aylana-aylana, tobora ko'kka intilardi. Sh.Rashidov, "Bo'ron dan kuchli". Hozir tunmi yoki ko'kni tuproq quyunlari qoplaganidan shunday qorong'imi – bilib bo'lmaydi. A.Muxtor, "Qoraqalpoq qissasi".

2 Shiddatli yog'in; to'fon. Bahorning noxosdan quturgan quyuni chirpirak urib keldi. "Guldasta". To'satdan deraza qorong'ilashib, chaqmoq chaqdi, momaqaldiraq dahshatli guldiradi. Quyun quya boshladi. I.Rahim, "Ixlos".

Har ikki leksema talqinida ham hodisaning shamolga ham, yog'inga ham daxldorligi aytiladi, aniqrog'i, sezilib turadi. Uyurma bo'ron va girdibod leksemasi bilan, quyun uyurma va dovul leksemalari bilan qiymatdosh sifatida tavsiflanganligi talqinlardan keyin mazkur leksemalarning keltirilganligida ko'zga tashlanadi.

Leksikografik talqinlarda so'zni to'g'ridan-to'g'ri uning sinonimlariga tenglashtirish izohlarning ko'rinishlaridan, so'z ma'nosini tavsiflashning yo'llaridan biridir. Biroq uyurma bo'ron emas yoki quyun dovul emas. Leksikografik talqinda esa fikrimizning aksi uqiladi. Aslida uyurma so'zi katta oqar suvning bir joyda aylanib, tag tomonga harakatini ham bildiradi va bu jihati bilan girdob so'ziga sinonim bo'lib, ushbu qiymati bilan quyun leksemasidan farqlanadi. Ularning mujassamlashtiruvchi belgisi "o'ralib harakat qilish" semasi bo'lsa, tasniflovchi belgisi quyunda "shamolga xos", "yuqoriga"; girdobda esa "suvga xos", "quyiga"; uyurma leksemasida esa mazkur belgilariga mo'tadil munosabatdir. Bu belgi tasnif va izohda muhim o'rin tutadi.

Ma'lum bo'ladiki, leksemalarning semantik-leksikografik talqinida tasnif va mujassamlashtirish omiliga tayanib ish ko'rish lisoniy hodisalardagi o'ziga xoslik hamda umumiy jihatlarni ochishda muhim rol o'ynaydi.

Yel-yog'in otlarning tub-yasamaligi asosidagi tasnifi ularning mohiyat tavsifida muhim rol o'ynaydi. Yel-yog'in otlari ushbu belgisi asosida tub va yasama leksemalarga ajraladi. Bunda leksemalarning yasamaligini maxsus sharhlashga ehtiyoj seziladi. Zero, til hodisalariga lison va nutqni izchil farqlab yondashish leksik birliklarning tub-yasamaligini shu nuqtai nazardan tekshirishni taqozo qiladi. Chunki tilshunosligimizda sistem leksikologiyaning taraqqiy etishi natijasida bugungi kunda

yasamalikning lison va nutqqa munosabati yana munozarali masalaga aylandi.

Ma'lumki, lisoniy birliklar tayyor, umumiy, majburiy kabi xossalarga ega bo'lib, nutqiy birliklar tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilari bilan lisoniy birliklarga qarama-qarshi turadi. Shu ma'noda biz quyidagi ikki yasama, hosila til birliklariga e'tibor qaratamiz: a) seryomg'ir, uyurma, laylakqor, to'zon; b) yog'insiz, shamoldek, qorli. Bu birliklardan birinchi guruhi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd qilingan va ularga leksikografik tavsif berilgan. Bu esa ularning yuqoridagi lisoniy birliklarga nisbatan tayyor, umumiy, majburiy belgilarga egaligini ko'rsatadi. Ular aslida nutqiy yasama birliklar bo'lgan bo'lib, bugungi kunda lisoniylashgan, ya'ni mazkur belgilar unda barqarorlashgan, ya'ni nutqiy yasama so'zlar leksemalarga aylangan. Buni tilshunoslar H.Ne'matov va R.Rasulovlar leksemani ta'riflash yo'li bilan "jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy majburiy bo'lgan, shakl va mazmunining barqaror biriktiruvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni biriktira oladigan morfema turi", deb ta'riflaydi. Aytilgandek, "leksemaning asosiy xususiyati uning "tayyorligi", ya'ni yasama emasligidir".

"Unumli so'z yasash qoliplarining hosilalari jamiyat a'zolari uchun tayyor holda bo'lib, qoliplarning hosilalari til (lison – A. A) birliklari (leksemalar emas), balki nutq birliklari, yasama so'zlar hisoblanadi" Tilshunos A. Hojiyev bu fikrlarga o'z e'tirozini quyidagicha bayon qiladi: "Bu aytilganlar yasama so'zlarning lisoniy birlik (lug'aviy birlik – leksema) emasligini uning nutqda voqea bo'luvchi hodisa, ya'ni nutq birligi ekanligini tasdiqlay olmaydi, ba'zi fikrlar esa yasama so'zlarning mohiyatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi Olim o'z e'tirozini quyidagi fikrlar bilan davom ettiradi: "1. Yasama so'zlar ham jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy hisoblanadi. Xuddi shuning uchun lug'atlarga kiritiladi, bosh so'z sifatida beriladi". Biroq unutmazlik kerakki, barcha yasama so'zlar ham izohli lug'atda berilavermaydi. Masalan, nutqdagi Shamolchi shamol chaqirsin, yomg'irchi yomg'ir gapidagi (shamolchi) va (yomg'irchi) yasama so'zlarini olib ko'raylik. So'zlar [ot+chi=shu ot anglatgan narsa-hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs] lisoniy derivatsion qolipning mahsuli. Ammo u mansub qolipning hosilasi bo'lgan ishchi, bo'zchi leksemalaridan farqlanib turishi ma'lum. Bu quyidagi qiyosda oydinlashadi: ishchi, bo'zchi – tayyor, umumiy majburiy, shamolchi, yomg'irchi – tayyor emas, induvidual, ixtiyoriy.

Demak, ishchi, bo'zchi leksemalari garchi [ot+chi=shu ot anglatgan narsa va hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs] qolipining mahsuli bo'lsa-da, bunga qarama-qarshi hodisalarga ega bo'lgan mazkur qolipning hosilasi sifatidagi shamolchi, yomg'irchi so'zlariga zid bo'lib, bu zidlik lison-nutq oppozitsiyasining namoyon bo'lishidir.

Tilshunoslar H.Ne'matov va R.Rasulov masalaga shu nuqtai nazardan yondashib, qolip hosilalarini ikkiga:

a) qolipning nutqiy hosilalari; b) qolipning lisoniy hosilalariga ajratganlar.

Masalan, [fe'l+vchi=fe'ldan anglashilgan harakatning bajaruvchisini bildiruvchi shaxs oti] qolipi asosida minglab nutqiy hosilalar yotadi. Jumladan, (yozuvchi) shunday hosilalardan biridir. Lekin o'zbek nutqida to'rta (yozuvchi) hosilasi mavjud: 1) yozuvchi (adib); 2) yozuvchi (shikoyatboz); 3) yozadigan qurilma (kompakt diskka axborot yozuvchi qurilmalar; 4) yozuvchi (insho yozuvchi, doskaga yozuvchi). Ulardan dastlabki uchta soddalashgan leksemalardir. To'rtinchisi esa yuqorida keltirilgan qolipning nutqiy hosilasidir (masalan, insho yozuvchilar 14-xonada yig'ilishgan Demak, olimlar lisoniylashgan, leksemalashgan yasama so'zlarni o'z qolipidan uzilgan, nutqiy yasamaligini yo'qotgan birliklar sifatida qaraydilar. Chunki "worker" ma'nosidagi ishchi leksemasi tegishli so'z yasash qolip [ot+chi=shu] otdan anglashilgan narsa va hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs]ining tenglik belgisidan o'ng, ya'ni mazmuniy tomoniga sig'maydi. Obrazli qilib aytganda, "g'isht qolipdan ko'chgan". shamolchi, yomg'irchi so'zlari esa bu qolipga har jihatdan mosligi bilan xarakterlidir. Shu boisdan A.Hojiyevning "yasama so'z bir marta hosil qilinadi va qo'llanilishi uchun (jamiyat a'zolari

uchun) tayyor, umumiy birlikka aylanadi. Umuman, har qanday yangi soʻz, u qanday yoʻl bilan yuzaga kelmasin, lugʻaviy birlik (leksema) maqomida boʻladi” degan fikri soʻz yasash qoliplari hosilalarining barchasini tenglashtirishidan boshqa narsa emas. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashilsa, yel-yogʻin otlari leksemalari tizimidagi yelvizak, yomgʻir, yogʻin, seryomgʻir, uchqun, chang-toʻzon, chaqin, chaqmoq, sharros, uyurma, laylakqor birliklari qaysidir soʻz yasash qolipining mahsuli ekanligi maʼlum.

Yel-yogʻin leksemalari tizimidagi seryogʻin, uyurma, laylakqor birlikmalari [ser+narsa va hodisa oti=shu narsaga molik belgi], (feʼl+ma = shu harakat asos boʻlgan narsa va hodisa oti), [ot+ot= narsa buyum oti] unumli soʻz yasash qoliplardan chiqqan boʻlib, bugungi kunda ular lisoniylashgan yasama soʻzlar – leksemalar qatoridan oʻrin olgan.

Demak, yel-yogʻin otlari leksemalari yasalganlik nuqtai nazaridan:

a) tub;

b) yasama leksemalarga boʻlinadi. Yasama leksemalar esa oʻz oʻrnida quyidagicha boʻlinadi:

a) affiksatsiya usuli bilan yasalgan otlar;

b) kompozitsiya usuli bilan yasalgan otlar.

Oʻzbek tilshunosligida leksemalar hosil boʻlishining bir necha koʻrinishlari farqlanadi:

a) ixtisoslashgan leksemalar;

b) soddalashgan leksemalar;

v) tublashgan leksemalar.

Buni yasama soʻzlarning soʻz yasash qoliplaridan uzilishi, uzoqlashishi deb baholash ham mumkin.

Ixtisoslashgan leksemalar yasama soʻzlar lisoniylashuvining eng quyi pogʻonasi boʻlib, oʻzida qolipning shakliy tomoni belgilarini saqlagan birliklardir. Masalan, sharros leksemasi [ovozga taqlid soʻz+os = ovozga taqlid maʼnosidagi sifat] qolipidan chiqqan boʻlib, gulduros, duvvos leksemalari bilan qator hosil qiladi. Bu kammahsul qolipdan sanoqli soʻzlar yasalgan. Qolip kammahsul boʻlishi bilan birga kamunum hamdir. Mazkur hosilalar bir qarashda oʻzak va qoʻshimcha orasidagi chegarani yoʻqotgandek tuyuladi. Bu holat qolipning kammahsulligi bilan bogʻliqdir. Shunday qilib, sharros leksemasi lisoniylashuvning birinchi bosqichdagi mahsuli sifatida qolaveradi.

Conclusion. Soddalashishda maʼlum bir soʻz yasash qolipining hosilasidagi oʻzak va qoʻshimchasi orasidagi chegara yoʻqoladi, bir qarashda sezilmaydigan holda boʻladi. Masalan yogʻin, quyun, chaqin leksemalari ana shunday hosila birliklardir.

Tublashgan leksemalar qolipdan shu darajada uzoqlashadiki, uning yasalganligini til tarixi, tovushlar siljishi, bir-biriga oʻtishi haqida maʼlumotga ega boʻlmasdan aniqlab boʻlmaydi. Masalan, yeldirim, yomgʻir, dovul leksemalari ana shular sirasiga kiradi.

Demak, yel-yogʻin otlarining derivatsion xossalariga koʻra tasnifidan shu narsa maʼlum boʻladiki, ular orasida sinxron yasali mahsuli yoʻq. Yasamalarining barchasi tarixiy yasali boʻlib, sanoqli soʻzlardagina (seryomgʻir, uyurma) bugungi kunda shu qolipda yasaladigan birliklar mavjud. Bu yel-yogʻin otlarining soʻz yasali hodisasi tarixiy hodisa boʻlib, unda tarix izlari yotganligini koʻrsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005. – B.20.
2. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 12.
3. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи,

1995. – Б. 51-52; Ҳожиёв А. Ясама сўз лисоний бирликми ёки нутқийми? // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – №1.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати . 2 томли. – М.: Русский язык, 1981. 2-том.
 5. Гетманова А.Д. Логика. – М.: Высшая школа, 1986. – С. 53.
 6. Несис Е.И. Атом бағрига саёҳат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1971. – Б. 8-14.
 7. Земский А.М., Крючков С.Е., Светлаев М.В. Русский язык. 4. I. – М., 1980.
 8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 1-жилд. – Б.489.